

MASOFAVIY TA'LIMNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

abdulaziztoshpolatov26@gmail.com

Annotatsiya: Pandemiya sababli tizimga masofaviy texnologiyalar joriy qilinib, 7 million o'quvchi va 500 mingdan ortiq talabaga onlayn dars berish yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda koronavirus tufayli karantin tartibi joriy etilib, ko'pgina ta'lim muassasalari faoliyati vaqtincha to'xtatilganiga bir yarim oydan oshdi. Ayni paytda o'quvchi-talabalar darslarni televidenie hamda internet orqali masofaviy o'zlashtirmoqda. Ushbularni hisobga olgan holda masofaviy ta'limning samarali vositalari haqida batafsil ma'lumot bermoqchimiz.

Kalit so'zlar: Pandemiya, karantin, sanitariya-epidimiologiya, masofaviy ta'lim, internet, edumonitoring, bot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация: В связи с пандемией в систему были внедрены дистанционные технологии и запущено онлайн-обучение для 7 миллионов студентов и более 500 000 студентов. Прошло больше полутора месяцев с момента введения в нашей стране карантина из-за коронавируса и приостановки работы многих учебных заведений. В настоящее время студенты изучают уроки удаленно через телевидение и Интернет. Имея это в виду, мы хотели бы предоставить подробную информацию об эффективных средствах дистанционного обучения.

Ключевые слова: пандемия, карантин, санитарно-эпидемиологический, дистанционное обучение, интернет, эдумониторинг, бот, информационно-коммуникационные технологии.

Annotation: Due to the pandemic, remote technologies have been introduced into the system, and online teaching has been launched for 7 million students and more than 500,000 students. It has been more than a month and a half since the introduction of quarantine due to coronavirus in our country, and the suspension of many educational institutions. Currently, students are learning the lessons remotely through television and the Internet. With this in mind, we want to provide detailed information about the effective means of distance learning.

Keywords: pandemic, quarantine, sanitary-epidemiological, distance education, internet, edumonitoring, bot, information and communication technologies.

Masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish masalasini muhokama qilganimizda, xorijlik hamkorlarimiz ko'pgina davlatlarda maktab o'quvchilari uchun ham internet orqali o'quv jarayoni tashkil etilgani, biroq internet va texnik imkoniyatlar yetishmovchiligi sabab ko'plab muammolar kuzatilayotganini qayd etishdi. Shuningdek, O'zbekistonning bu borada tutgan yo'li, ya'ni onlayn darslarning televidenie va internet orqali teng taqsimlanishi eng to'g'ri tanlov bo'lganini ta'kidlashdi. Yurtimizda birinchi marta tashkil etilayotgani bois videodarslarda, umuman, masofaviy ta'limni tashkil etishda o'ziga yarasha muammolar kuzatilishi tabiiy. Hozir ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan masofaviy ta'limni tashkil etish, uning sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro ekspertlardan taklif va tavsiyalar olinib, tizim takomillashtirilmoqda.

Shu o'rinda masofaviy bo'lsada, ta'lim sifatini ta'minlash haqida ham unutmaslik kerak. Hozir ayrim rivojlangan mamlakatlarda masofadan olib borilayotgan darslarining sifatini nazorat qilish uchun onlayn so'rovlar o'tkazilib turiladi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi ham Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan hamkorlikda masofaviy ta'limning tashkil etilishi yuzasidan monitoring olib bormoqda.

Jarayonda keng jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ota-onalarga qulaylik yaratish maqsadida inspeksiyaning @edumonitoring_bot telegram boti ishga tushirilgan. U orqali ota-onalar maktab va oliy ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitishning sifati, uni tashkil etish hamda hududlardagi muammo va qiyinchiliklar bo'yicha xabar va takliflar bermoqda. Ayni paytda hamkor vazirliklar va mahalliy hokimliklar bilan masofaviy ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar bartaraf etilmoqda. Biz o'quvchilarning videodarslar orqali ta'lim olayotganini har bir xonadonga kirib nazorat qilolmaymiz. Shu nuqtai nazardan, telekanallar orqali muntazam berib borilayotgan mashg'ulotlar o'qituvchi-murabbiylar bilan bir qatorda ota-onalarga ham mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, ular farzandlarining televidenie orqali uzatilayotgan darslarni muntazam kuzatib borishi uchun sharoit yaratishi, doim nazorat qilishi, o'g'il-qizining mavzularni o'zlashtirishi, vazifalarni bajarishiga yordamlashishi, shuningdek, o'qituvchilar bilan xabar almashish uchun internet orqali muloqotni ta'minlashi lozim.

Pandemiya sababli joriy etilgan karantinning salbiy jihatlari haqida to'xtalaymiz, biroq ushbu jarayondan unumli foydalanib qolish imkoniyatlari ham mavjud. Sababi, barcha universitetlar masofaviy ta'limni yo'lga qo'yish bo'yicha muayyan darajada tajriba orttirmoqda. Shu bilan birga, yoshlarda ta'lim turlarini o'zaro solishtirib ko'rish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Albatta, biz karantin davrida masofaviy ta'lim bo'yicha olingan tajribadan kelgusida ham keng foydalanamiz. Buning ijobiy jihatlari tahlil qilamiz.

Karantin davrigacha masofaviy ta'lim, asosan, yurtimiz malaka oshirish tizimida qisman qo'llanayotgan edi. endi esa ayrim mutaxassisliklar uchun tajriba-sinov asosida masofaviy ta'limni tashkil etish va samaradorligiga qarab uni keng yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Buning uchun esa mavjud huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ham shunga moslashtirishimiz lozim. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda kunduzgi, sirtqi hamda kechki ta'lim olish shakllari belgilangan bo'lib, masofaviy ta'lim shakli ushbu qonun hujjatida ko'zda tutilmagan edi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan salmoqli islohotlar tufayli "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi tayyorlanib, tegishli manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi. Undan masofaviy ta'lim shaklida o'qitish ham o'rin olgan. SHuningdek, yangi o'quv yilidan boshlab yurtimizdagi to'rtta oliy ta'lim muassasasida masofaviy ta'lim shaklida o'qitish jarayonini tashkil etish rejalashtirilgan.

Hozir mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari masofadan turib dars jarayonini olib bormoqda. Bitiruv-malakaviy ishlar himoyasi, davlat imtihonlari, nazorat ishlari ham masofaviy shaklga o'tkazilmoqda. Biroq tahlillar ayrim professor-o'qituvchilarning tajriba va ko'nikmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish darajasi talabga to'liq javob bermayotganini ko'rsatyapti. Shuningdek, ayrim talabalarda ham masofaviy ta'lim olish ko'nikmasi mavjud emas. Albatta, bu borada hali ko'p ishlar amalga oshirilishi shubhasiz.

Masofadan o'qitishda o'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishini tugatadi va o'qitishni tugatganligi to'g'risida sertifikat oldi.

Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

- + darslik;
- + audio va vidiodarsliklar;
- + veb-saytlar;
- + elektron kutubxonalar;
- + matnlar;
- + elektron darsliklar.

Albatta, foydalanuvchi ixtiyorida masofadan ta'lim olishda multimediyali kompyuter, modem va telefon orqali mavjud bo'lishi kerak. XXI asrda masofaviy ta'lim eng istiqbolli insonparvar ta'lim va ta'limning integral shakli sifatida ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. XXI asr ta'lim jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o'z-o'zidan ta'lim jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi. O'zaro aloqadorlikga doir talablar: materillar oqimi, faktlar oqimi, maoliyaviy jarayonlar

Hozirgi kunda masofadan o`qitish dunyoning ko`pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta'lim shakli sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiyaning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropolitan universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida masofaviy o`qitish texnologiyasi keng yo`lga qo`yilgan bo`lib, unda talabalar va boshqa soha mutaxassislarining malakasini oshirish sohasida samarali qo`llanilib kelinmoqda.

O`z-o`zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O`zbekiston uchun ham bu ta'lim turi uzoq kelajak emas. Shuning uchun ham O`zbekiston o`quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirish davr talabi. O`qitishdagi axborot texnologiyalar bu o`qitish faoliyatida qo`llaniladigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullari majmuidir. Elektron vositalar tarkibiga apparatli, dasturli va axborotli komponentlar kiradi. Ularni qullash ko`rsatmalari o`qitishdagi axborot texnologiyalarni metodik (uslubiy) ta'minotida keltiriladi.

Masofaviy ta'lim bu o`qitishning insonparvar shakli bo`lib, an'anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda texnik vositalar o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish, o`qituvchi va o`quvchi orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi. Shunga ko`ra masofaviy o`qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta'limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o`z navbatida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish to`g`risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta'lim tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo`lib, o`z ichiga server va ishchi stantsiyalar, shaxsiy kompyuterlar kommunikatsiya vositalari, umum sistemali va tarmoqli dasturlar ta'minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv sistemalari, o`rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo`lgan audio va video texnikalarni oladi.

Masofaviy o`qitish tizimida konsulyatatsiyalar yangi axborot texnologiyalar yordamida olib boriladi: telefon elektron pochta, video va telekonferentsiya, ko`p hollarda telefon va elektron pochtdan foydalaniladi.

Faol o`qitish metodlari o`qitishning kontaktli va kontaktsiz davrlarida qo`llanilishi mumkin. Kontaktsiz davrda kopyuter tarmoqlari (internet) va audio – videokomopter vositalari qo`llaniladi. Hozirgi vaqtda kooperativl o`qitish metodlari rivojlanmoqda (proektlar metodi, o`quv firmalar metodi). Proektlar metodi deb, o`quvchilarning birgalikdagi o`rganish, ijod va o`yin faoliyatlari tushiniladi. Bu faoliyat kompyuter telekommunikatsiyalari asosida tashkil etilib, umumiy natijaga qaratilgan umumiy maqsad va metodlarga ega bo`ladi. Proektlar metodi bo`yicha o`qiyotgan o`quvchi rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarish jarayonida bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladi. Bu metod XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHda vujudga kelib, "bajarish yo`li

bilan o'qish" shiorini oldinga surgan pragmatik pedagogikaning nazariy kontseptsiyasiga asoslangan. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlarining didaktik imkoniyatlari bu yo'nalishni qayta tiklashga imkoniyat yaratadi.

Internet ta'lim sohasida katta imkoniyatlarga ega. Internet orqali barcha savollarga javob topish mumkin. Bundan tashqari veb-saytlarni ko'rish va yaratishdan tortib uning dasturlarigacha tekindir. Elektron biznesning va internet orqali biznesning imkoniyatlari cheksizdir. Bunday aloqalar orqali biznesning imkoniyatlari juda katta tezlik bilan o'sib bormoqda va bunday biznes dunyoning eng katta va tez rivojlanib borayotgan industriyalarining biriga aylanib bormoqda.

Keyingi paytlarda jamiyatimizda har bir inson uning boshlan-g'ich bilim darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar istalgan sohadan bilim olishga haqli deb topildi va uning kelajakda davlat muassasalarida yaxshi mansab egallashi maqsadida ta'lim muassasalariga jalb qilish odat bo'lib qoldi.

O'quv muassasalariga faqatgina bir necha fandan testlar topshirgan holda kirishni tashkil qilish ham o'quvchilarning dun-yoqarashi va bilimlarini chegaralangan hamda bir tomonlama bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Chunki maktab, litsey va kollejlarda ko'pgina fanlar chetga surilib, ularda faqatgina test topshiriladigan fanlar bo'yicha chu-qur ta'lim berilishi, test javoblarini ularning mohiyatiga yetmasdan yod-da saqlashga harakat qilinishi bitiruvchilar bilimining sayoz va bir tomonlama bo'lishiga olib kelmoqda.

Agar kirish imtihonlari barcha fanlar bo'yicha integral usulda tashkil qilinsa, ya'ni, bir qism fanlardan test orqali, boshqalaridan og'zaki savol-javoblar vositasida, yana boshqalaridan yozma usulda qabul qilinib, ularning natijasi umumlashtirilsa, chuqur bilimli va fikrlash doirasi keng bo'lgan abituriyentlarga o'quv muassasasiga kirishar edi va yuqoridagi salbiy holatlar yuz bermas edi, albatta. Bu mamlakat kelajagi bilan uzviy bog'liq strategik masala bo'l-gani uchun ham uni ta'kidlamasdan boshqa ilojimiz yo'q.

Xulosa

Xulosa o'rnida, ta'lim berish jarayonida asosiy diqqat-e'tibor ta'lim muassa-salarida qanday fanlardan dars berish, qanday ta'lim standartlariga rioya qilish va qanday kitoblardan foydalanishga qaratildi, xolos. Bunda, ming afsuski, ta'lim berishning asosiy omili va yurituvchi kuchi bo'lgan bir nima yoddan chiqarildi – bu eng asosiy omil esa shak-shubhasiz – O'QITUVCHIDIR! Bu borada hozirgi zamonga mos bo'lgan quyidagi fikr o'rinlidir, desak ham bo'laveradi: «Har qanday fan bo'yicha malakali o'qituvchini osongina tayyorlash mumkin va u o'quv jarayoni mexanizmining bir detali sifatida istalgancha dasturlanishi va yo'nal-tirilishi mumkin?!» Bu tezis o'z-o'zidan o'qituvchining jamiytdagi mavqeyini juda ham pasaytirib, o'quvchilarning unga bo'lgan hurmat va e'tiborga sezilarli darajada putur yetkazadi.

Natija ham darhol ayon bo'ladi – malakali o'qituvchi bo'lishga intilish yo'qolib, bu sohada yetuk mutaxassis bo'lishga layoqatlilar soni keskin kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim berish sifatini ancha pasaytiradi. Lekin bu tezis hozirgi jadal sur'atda rivojlanayotgan hayotga aslo mos kelmaydi va uni jadal rivojlanish davriga mos quyidagi tezis bilan almashtirish maqsadga muvofiq: «Malakali o'qituvchini tayyorlash juda murakkab va qimmat turadigan faoliyat turi bo'lib, u o'quv jarayonining ijodiy, yaratuvchi va yurituvchi kuchidir. Har bir o'qituvchini juda ham qimmatli insoniy xazina sifatida hisoblab, uning jamiyatdagi mavqeyini imkon darajasida ko'tarish mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlariga aynan mos keladi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ziynet.uz" elektron sayti.
2. "Pandemiya sharoitida 2020-2021 o'quv yili" kitobi.
3. Google intervyular jamlanmasi.
4. Fayziyev I. Sh. & Toshpo'latov A. (2022) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN OLDINGI VA KEYINGISI YOSIY HAYOTI. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development Volume-10, Nov., 2022 31-34b
5. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178.
6. Temirov, J. ., & Toshpo'latov, A. (2023). TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Наука и инновация, 1(28), 29–32.
7. Umarova, G. ., & Toshpo'latov, A. . (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55.
8. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI SHAXS AGRESSIYA. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 30–31.
9. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOIIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27–29.